

«TASDIQLAYMAN»

O'zbekiston tarixi davlat muzeyi

direktori J. X. Ismailova Ismailova J.X.



2022 yil

*“O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi O'zbekiston tarixi davlat muzeyi
uchun mobil dastur ishlab chiqish”*
(obyekt, ish xizmat nomi)

TANLOV XUJJATI

TOSHKENT
2022

**O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi huzuridagi O'zbekiston tarixi
davlat muzeyi**
(Buyurtmachi nomi)

"O'zRFA. O'zbekiston tarixi davlat muzeyi uchun mobil dastur ishlab chiqish"
(obyekt, ish xizmat nomi)

TANLOV E'LON QILADI

*Xizmat ko'rsatish muddati – 2022 yilning iyul oyi mobaynida amalga
oshirilishi lozim.*

*Umumiy summa 160 000 000 so'm - o'zbek va ingliz tillarida tasviriy va
amaliy san'at atamalarining izohli elektron lug'ati uchun mobil ilova.*

**Buyurtmachi: O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi huzuridagi
O'zbekiston tarixi davlat muzeyi.**

Moliyalashtirish manbasi: **Byudjet mablag'lari**

Tanlov ishtirokchilari quyidagi talablarga loyiq bo'lishlari lozim: ish/xizmatlarni bajarish uchun zarur bo'lgan kamida 9 yillik tajriba hamda yuqorida ko'rsatilgan ish/xizmatlarni bajarish uchun ishchi xodimlarining yuqori malakaga ega ekanliklari, shartnoma tuzish yuzasidan fuqarolik-muomala layoqati vakolatlariga ega va tajribali bo'lishlari shart.

- Tasdiqlangan tanlov hujjatlari buyurtmachi tomonidan joylashtiriladigan davlat xaridlari bo'yicha maxsus axborot portalidan yuklab olishlari mumkin.
- Takliflar tanlov tashkilotchisi tomonidan yuqoridagi manzilda tanlovnin e'loniga e'lon qilingan kuni va vaqtiga qadar qabul qilinadi.

E'lon etender.uzex.uz maxsus axborot portaliga berilgan

TANLOVDA ISHTIROK ETISH UCHUN TAKLIFNOMA

O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi huzuridagi O'zbekiston tarixi davlat muzeyi nomidan qo'yilgan e'londa ishtirok etishga tanlov ishtirokchilarini taklif etamiz va quyidagi xizmatni ko'rsatish bo'yicha tanlov taklifini taqdim etilishini so'raymiz.

Ob'yekt nomi: Mobil ilova.

Xizmat ko'rsatish muddati – 2022 yilning iyul oyi davomida amalgalashirilishi lozim.

Umumiy summa 160 000 000 so'm - - o'zbek va ingliz tillarida tasviriy va amaliy san'at atamalarining izohli elektron lug'ati uchun mobil ilova

Buyurtmachi: O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi huzuridagi O'zbekiston tarixi davlat muzeyi.

Manzil: Toshkent shahar, Yunusobod tumani, Sh.Rashidov ko'chasi 3 – uy, O'zbekiston tarixi davlat muzeyi

Loyihani moliyalashtirish manbasi: Davlat budgeti

Taklif etilgan shartlar bo'yicha tanlovda murojat bilan mahalliy va xorjiy korxona va tashkilotlari ishtirok etishlari mumkin.

Agar tanlov predmeti bo'lgan ishlar/xizmatlarni bajarish bilan bog'liq faoliyat qonun hujjaligiga muvofiq litsenziyalanishi zarur bo'lsa, tanlovda ishtirok etish uchun belgilangan tartibga asosan tegishli litsenziyaga ega bo'lgan tanlov ishtirokchilariga ruxsat etiladi.

Quyidagi tanlov ishtirokchilariga tanlov jarayonlarida ishtirok etishga ruxsat berilmaydi:

qayta tashkil etish (bo'linish, qo'shilish) tugatish yoki bankrotik arafasida turganlar; mol-mulki musodaraga olinganlar hamda muassislik kelishuv, moliyaviy ishtirok, xolding va boshqa shaklda ifodalangan bevosita tashkiliy-huquqiy yoki bir-biriga moliyaviy qaramligi mavjud tashkilotlar.

Tanlov taklifini tayyorlash va taqdim etish uchun kerakli barcha hujjalilar tanlov ishtirokchilari uchun yo'riqnomada aks ettirilgan.

Takliflarni ochish tanlov e'lon qilingan sanadan boshlab 5 (besh) ish kunidan so'ng bo'lib o'tadi.



Mas'ul shaxs

D. Jumaniyozova